ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ ВАЗИРЛИГИ
ТОШКЕНТ ТИББИЁТ АКАДЕМИЯСИ

2022 №10

*2011 йилдан чиқа бошлаган*

# TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI




# ВЕСТНИК ТАШКЕНТСКОЙ МЕДИЦИНСКОЙ АКАДЕМИИ

Тошкент

ISSN 2181-7812

Выпуск набран и сверстан на компьютерном издательском комплексе
редакционно-издательского отдела
Ташкентской медицинской академии

Начальник отдела: М. Н. Аслонов

Редактор русского текста : О.А. Козлова

Редактор узбекского текста: М.Г. Файзиева

Редактор английского текста: А.Х. Жураев

Компьютерная корректура: З.Т. Алюшева

Учредитель: Ташкентская медицинская академия

Издание зарегистрировано в Ташкентском Городском управлении печати и информации
Регистрационное свидетельство 02-00128

Журнал внесен в список, утвержденный приказом № 201/3 от 30 декабря 2013года
реестром ВАК в раздел медицинских наук

Рукописи, оформленные в соответствии
с прилагаемыми правилами, просим направлять
по адресу: 100109, Ташкент, ул. Фароби, 2,
Главный учебный корпус ТМА,

4-й этаж, комната 444.
Контактный телефон: 214 90 64
e-mail: rio-tma@mail.ru
rio@tma.uz

Формат 60х84 1/8. Усл. печ. л. 9,75.
Гарнитура «Cambria».
Тираж 150.
Цена договорная.

Отпечатано на ризографе
редакционно-издательского отдела ТМА.
100109, Ташкент, ул. Фароби, 2.

Вестник ТМА № 10, 2022

***РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ***

***Главный редактор***

проф. А.К. Шадманов

***Заместитель главного редактора***

проф. О.Р.Тешаев

***Ответственный секретарь***

проф. Ф.Х.Иноятова

***ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ***

акад. Аляви А.Л.
проф. Билалов Э.Н.
проф. Гадаев А.Г.
проф. Жае Вук Чои (Корея)
акад. Каримов Ш.И.
проф. Татьяна Силина (Украина)
акад. Курбанов Р.Д.
проф. Людмила Зуева (Россия)
проф. Метин Онерчи (Турция)
проф. Ми Юн (Корея)
акад. Назыров Ф.Г.
проф. Нажмутдинова Д.К.
проф. Саломова Ф.И.
проф. Саша Трескач (Германия)
проф. Шайхова Г.И.

***Члены редакционоого совета***

д.п.н. Абдуллаева Р.М. (Ташкент)
проф. Акилов Ф.О. (Ташкент)
проф. Аллаева М.Д. (Ташкент)
проф. Хамдамов Б.З. (Бухара)
проф. Ирискулов Б.У. (Ташкент)
проф. Каримов М.Ш. (Ташкент)
проф. Маматкулов Б.М. (Ташкент)
проф. Охунов А.О. (Ташкент)
проф. Парпиева Н.Н. (Ташкент)
проф. Рахимбаева Г.С. (Ташкент)
проф. Хамраев А.А. (Ташкент)
проф. Холматова Б.Т. (Ташкент)
проф. Шагазатова Б.Х. (Ташкент)

Herald TMA № 10, 2022

**_EDITORIAL BOARD_**

**_Editor in chief_**

prof. A.K. Shadmanov

**_Deputy Chief Editor_**

prof. O.R.Teshaev

**_Responsible secretary_**

prof. F.Kh.Inoyatova

**_EDITORIAL TEAM_**

academician Alyavi A.L.
prof. Bilalov E.N.
prof. Gadaev A.G.
prof. Jae Wook Choi (Korea)
academician Karimov Sh.I.
prof. Tatyana Silina (Ukraine)
academician Kurbanov R.D.
prof. Lyudmila Zueva (Russia) prof.
Metin Onerc (Turkey)
prof. Mee Yeun (Korea)
prof. Najmutdinova D.K.
prof. Salomova F.I.
prof. Sascha Treskatch (Germany)
prof. Shaykhova G.I.

**_EDITORIAL COUNCIL_**

DSc. Abdullaeva R.M.
prof. Akilov F.O. (Tashkent)
prof. Allaeva M.D. (Tashkent)
prof. Khamdamov B.Z. (Bukhara)
prof. Iriskulov B.U. (Tashkent)
prof. Karimov M.Sh. (Tashkent) prof.
Mamatkulov B.M. (Tashkent) prof.
Okhunov A.A. (Tashkent)
prof. Parpieva N.N. (Tashkent)
prof. Rakhimbaeva G.S. (Tashkent)
prof. Khamraev A.A. (Tashkent) prof.
Kholmatova B.T. (Tashkent) prof.
Shagazatova B.X. (Tashkent)

**Journal edited and printed in the computer of Tashkent Medical Academy editorial department**

**Editorial board of Tashkent Medical Academy**

**Head of the department: M.N. Aslonov**

**Russian language editor: O.A. Kozlova**

**Uzbek language editor: M.G. Fayzieva**

**English language editor: A.X. Juraev**

**Corrector: Z.T. Alyusheva**

**Organizer: Tashkent Medical Academy**

**Publication registered in editorial and information department of Tashkent city**

**Registered certificate 02-00128**

**Journal approved and numbered under the order 201/3 from 30 of December 2013 in Medical Sciences department of SUPREME ATTESTATION COMISSION**

**COMPLITED MANSCIPTS PLEASE SEND following address:**

**2-Farobiy street, 4 floor room 444. Administration building of TMA. Tashkent. 100109, Toshkent, ul. Farobi, 2, TMA bosh o'quv binosi, 4-qavat, 444-xona.**

**Contact number:71- 214 90 64**

**e-mail: rio-tma@mail.ru. rio@tma.uz**

**Format 60x84 1/8. Usl. printer. l. 9.75.**

**Listening means «Cambria».**

**Circulation 150.**

**Negotiable price**

**Printed in TMA editorial and publisher department risograph**

**2 Farobiy street, Tashkent, 100109.**

| | | |
|---|---|---|
| Нигматова Г.М., Хамраев Х.Х. НОВЫЕ ПОДХОДЫ В ДИАГНОСТИКЕ И ТАКТИКЕ ВЕДЕНИЯ ЖЕНЩИН С ПРЕЭКЛАМПСИЕЙ | Nigmatova G.M., Khamraev Kh.Kh. NEW APPROACHES IN THE DIAGNOSIS AND MANAGEMENT OF WOMEN WITH PREECLAMPSIA | 149 |
| Nuruzova Z.A., Mamatmusayeva F.Sh., Aliyev Sh.R. ME’DA SARATONI KELIB CHIQISHIGA SHUBHA QILINGAN BEMORLARDA HELICOBACTER PYLORI O‘RNINI ANIQLASH | Nuruzova Z.A., Mamatmusayeva F.Sh., Aliyev Sh.R. DETECTION OF HELICOBACTER PYLORI IN PATIENTS WITH SUSPECTED GASTRIC CANCER | 153 |
| Рахимова М.Б., Ахмедов Х.С., Саидмуродова М.С. ОЦЕНКА КАРДИОВАСКУЛЯРНОГО РИСКА НА ФОНЕ ЭНДОТЕЛИАЛЬНОЙ ДИСФУНКЦИИ У БОЛЬНЫХ С АНКИЛОЗИРУЮЩИМ СПОНДИЛОАРТРИТОМ | Rakhimova M.B., Akhmedov Kh.S., Saidmurodova M.S. EVALUATION OF CARDIOVASCULAR PERIL ON ENDOTHELIAL DYSFUNCTION BASE IN PATIENTS WITH ANKYLOSING SPONDYLITIS | 158 |
| Тешаев О.Р., Мурадов А.С. МАТЕМАТИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ РАСЧЕТА РЕЗЕКЦИИ АНТРАЛЬНОЙ ЧАСТИ ЖЕЛУДКА ПРИ ПРОДОЛЬНОЙ РЕЗЕКЦИИ ЖЕЛУДКА | Teshaev O.R., Murodov A.S. MATHEMATICAL MODEL FOR CALCULATING THE RESECTION OF THE ANTRAL PART OF THE STOMACH WITH A LONGITUDINAL RESECTION OF THE STOMACH | 164 |
| Hakimov S.A., Baxriyev I.I., Sultanov S.B., Gulyamov D.E. SUD TIBBIYOTI AMALIYOTIDA POSTASFIKTIK HOLATLARNI BAHOLASHNING AHAMIYATI | Khakimov S.A., Bakhriyev I.I., Sultanov S.B., Gulyamov D.E. VALUE OF ASSESSING POSTAFICTIC CIRCUMSTANCES IN JURISPRUDENCE | 168 |
| Шукурова У.П., Ходжиметов А.А., Мухамедова Н.Х., Бауетдинова Г.Д. СОДЕРЖАНИЕ РЕГУЛЯТОРНЫХ ПРОСКЛЕРОТИЧЕСКИХ МАРКЕРОВ НЕФРОСКЛЕРОЗЕ ПРИ ХРОНИЧЕСКОМ ПИЕЛОНЕФРИТЕ | Shukurova U.P., Khodzhimetov A.A., Mukhamedova N.Kh., Bauyetdinova G.D. THE CONTENT OF REGULATORY PROSCLEROTIC MARKERS OF NEPHROSCLEROSIS IN CHRONIC PYELONEPHRITIS | 171 |
| Юлдашева Д.Ю., Ирназарова Д.Х., Мамадалиева У.П. ПАТОМОРФОЛОГИЯ МИОМЫ МАТКИ | Yuldasheva D.Y., Kayumova D.T., Irnazarova D.X.P ATHOMORPHOLOGY OF UTERINE FIBROIDS | 175 |


## ГИГИЕНА, САНИТАРИЯ И ЭПИДЕМИОЛОГИЯ / HYGIENE, SANITATIONAND EPIDEMIOLOGY


| | | |
|---|---|---|
| Абдукахарова М.Ф., Матназарова Г.С., Неъматова Н.У. ВНУТРИБОЛЬНИЧНЫЕ ИНФЕКЦИИ И ПОСЛЕОПЕРАЦИОННЫЕ ОСЛОЖНЕНИЯ В ХИРУРГИЧЕСКИХ ОТДЕЛЕНИЯХ | Abdukakharova M.F., Matnazarova G.S., Nematova N.U. HOSPITAL INFECTIONS AND POSTOPERATIVE COMPLICATIONS IN SURGICAL DEPARTMENTS | 180 |
| Yodgorova N.T., Nematov A.S., Mustanov A.N. O‘TKIR ICHAK KASALLIKLARINING SURXONDARYO VILOYATI HUDUDLARI BO‘YICHA UCHRASH DARAJASI | Yodgorova N.T., Nematov A.S., Mustanov A.N. LEVEL OF ACUTE INTESTINAL DISEASES IN THE REGIONS OF SURKHANDARYA REGION | 184 |
| Мадреимов А.М., Матназарова Г.С., Брянцева Е.В., Маденбаева Г.И. О НЕБЛАГОПРИЯТНЫХ САНИТАРНО-ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ФАКТОРАХ В РЕСПУБЛИКЕ КАРАКАЛПАКСТАН И ИХ ВЛИЯНИИ НА ЗАБОЛЕВАЕМОСТЬ ЗЛОКАЧЕСТВЕННЫМИ НОВООБРАЗОВАНИЯМИ | Madreimov A.M., Matnazarova G.S., Bryantseva E.V., Madenbaeva G.I. ON ADVERSE SANITARY AND ENVIRONMENTAL FACTORS IN THE REPUBLIC OF KARAKALPAKSTAN AND THEIR INFLUENCE ON THE INCIDENCE OF MALIGNANT NEOPLASMS | 188 |
| Неъматова Н.У., Матназарова Г.С., Абдукахарова М.Ф. ВИЧ-ИНФЕКЦИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ | Nematova N.U., Matnazarova G.S., Abdukakharova M.F. HIV- INFECTIONS IN UZBEKISTAN | 194 |

| | | |
|---|---|---|
| Nurmatov.B.Q., Raximov.B.B. COVID-19 BILAN KASALLANGAN BEMORLARNI DAVOLASHGA IXTISOSLASHGAN KASALXONA ICHKI MUHITI HAVOSI VA YUZALARINING VIRUS BILAN ZARARLANISHINI O‘RGANISH | Nurmatov.B.K., Raximov.B.B. STUDY OF VIRUS CONTAMINATION OF INDOOR AIR AND SURFACES OF HOSPITAL WHICH SPECIALIZED IN THE TREATMENT OF COVID-19 PATIENTS | 198 |
| Саломова Ф.И., Садуллаева Х.А., Кобилжонова Ш.Р., Анварова Э. ГЕННАЯ МОДИФИКАЦИЯ В МЕДИЦИНЕ И ДЕЙСТВИЕ ИХ НА ДЕТЕЙ С АТОПИЧЕСКИМ ДЕРМАТИТОМ | Salomova F.I., Sadullaeva Kh.A., Kobilzhonova Sh.R., Anvarova E. GENE MODIFICATION IN MEDICINE AND THEIR EFFECT ON CHILDREN WITH ATOPIC DERMATITIS | 202 |
| Шайхова Г.И., Эрматов Н.Ж., Абдуллаева Д.Г., Асрорзода З.У., Камилова А.Ш. ФАКТОРЫ ФОРМИРУЮЩИЕ НАРУШЕНИЯ НА ФИЗИОЛОГИЧЕСКИХ ИЗГИБАХ ПОЗВОНОЧНИКА ДЕТЕЙ И ПОДРОСТКОВ | Shaikhova G.I., Ermatov N.Zh., Abdullayeva D.G., Asrorzoda Z.U., KamilovaA.Sh. FACTORS FORMING DISORDERS ON THE PHYSIOLOGICAL BENDING OF THE SPINE IN CHILDREN AND ADOLESCENTS | 205 |

**COVID-19 BILAN KASALLANGAN BEMORLARNI DAVOLASHGA IXTISOSLASHGAN KASALXONA ICHKI MUHITI HAVOSI VA YUZALARINING VIRUS BILAN ZARARLANISHINI OʻRGANISH**

Nurmatov.B.Q., Raximov.B.B.

**STUDY OF VIRUS CONTAMINATION OF INDOOR AIR AND SURFACES OF HOSPITAL WHICH SPECIALIZED IN THE TREATMENT OF COVID-19 PATIENTS**

Nurmatov.B.K., Raximov.B.B.

**ИЗУЧЕНИЕ ВИРУСНОЙ ЗАГРЯЗНЕННОСТИ ВОЗДУХА ПОМЕЩЕНИЙ И ПОВЕРХНОСТЕЙ БОЛЬНИЦЫ, СПЕЦИАЛИЗИРУЮЩЕЙСЯ НА ЛЕЧЕНИИ ПАЦИЕНТОВ С COVID-19.**

Нурматов Б.К., Рахимов Б.Б.

*Toshkent tibbiyot akademiyasi*

*Изначально в 2019 году неизвестный вирус, вызывающий коронавирусную болезнь, был обнаружен в китайском городе Ухань и быстро распространился по миру, вызвав пандемию. Способ передачи вируса вызвал много споров. По результатам многих исследований научно обосновано, что воздушно-капельный механизм является основным путем передачи. Но все же важно изучить роль и значение других факторов, поддерживающих распространение вируса в воздухе. В своей исследовательской работе мы попытались изучить зараженность воздуха помещений, поверхностей и средств индивидуальной защиты вирусом.*

***Ключевые слова:*** *Коронавирус, COVID-19, отбор проб воздуха внутри помещений, поверхностный смыв, охрана здоровья сотрудников.*

*Initially, in 2019, an unknown virus that causes coronavirus disease was discovered in the Chinese city of Wuhan and quickly spread around the world, causing a pandemic. The mode of transmission of the virus has caused much controversy. According to the results of many studies, it has been scientifically substantiated that the airborne mechanism is the main route of transmission. But it is still important to study the role and significance of other factors that support the spread of the virus in the air. In our research work, we tried to study the contamination of indoor air, surfaces and personal protective equipment with the virus.*

***Key words:*** *Coronavirus, COVID-19, indoor air sampling, surface swabbing, employee health protection.*

Fanga maʼlumki 2019-yilning ohiriga kelib Xitoyning Vuhan (Wuhan) viloyatida birinchi bor ogʻir respirator sindrom bilan kuzatiluvchi (SARS-CoV-2) yangi koronavirus bilan kasallanish holatlari aniqlandi [1,2,7,8]. Shundan soʻng virus dunyo boʻylab tezda tarqala boshladi va PANDIMIYAga sabab boʻldi [2,5]. Pandemiyaga sababchi boʻlgan virus etiologiyali bu kasallik asosan havo-tomchi mexanizmi orqali tarqalishi shu oilaga kiruvchi va oʻtgan davrda oʻchoqli tarzda tarqalgan SARS-CoV-1 va MERS-CoV viruslariga oʻxshash ekanligi fanga maʼlum edi [3,4,10], ammo patogenitik va epidemiologik xususiyatlari va inson organizmining virusga nisbatan javob reaksiyalari (ing. - immune response) borasida aytarlik aniq maʼlumotlar yetarli darajada mavjud emas edi. Natijada virusning nafaqat aholi salomatligiga taʼsirini oʻrganish, balkim kasalxona ishchilariga taʼsirini oʻrganish, COVID-19 bilan tibbiyot xodimlarining kasallanish xavf omillarini oʻrganish dolzarb masalalar sifatida aʼyon boʻla boshladi [5,7,9,11]. Olimlar tomonidan olib borilgan bir nechta tadqiqot ishlari shuni koʻrsatdiki havo orqali yuqish mexanizmiga ega boʻlgan baʼzi virusli kasalliklar bemor insondan ikki metr masofagacha tarqalish imkoniyatiga ega, natijada faqatgina havo tomchi orqali va yaqin aloqa qilish orqali yuqishga asoslangan epidemiologik modellar COVID-19 ning tarqalishidagi mintaqaviy farqlarni toʻliq tushuntirib bera olmadi [6]. COVID-19 virusi bilan ichki muhit havosi, kasalxona ichi anjomlari va shifokorlar shaxsiy himoya vositalarining ifloslanishi bemorlardan ajratiladigan nafas tomchilari orqali sodir boʻlishi kabi turli gipotezlar oʻz isbotini topmoqda [1,3,4,8]. Bu borada koʻplab davlatlarda ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirib kelinmoqda. Bu esa COVID-19 pandimiyasi sharoitida infeksiya yuqishini kamaytirish uchun yangicha tashkiliy-uslubiy yondashuvlar, yechimlar ishlab chiqilishi va qoʻllanilishi zaruruligini taqazo etadi.

Tadqiqot ishi 2020-yilning 20-fevralidan 3-martiga qadar COVID-19 kasalligining oʻrta ogʻir va ogʻir bosqichidagi bemorlarni davolashga moʻljallangan ixtisoslashtirilgan shifoxona – Zangiota-2 kasalxonasida olib borildi. Kasalxona 2019 nafar bemor oʻringa moʻljallangan boʻlib, koronavirus toʻlqini avjiga chiqqan vaqtda kuniga 600 nafar bemorni qabul qildi. Kasalxona qabul boʻlimi (15m$^2$), kutish palatasi (15m$^2$), laboratoriyalar, shifokorlar xonasi, umumiy boʻlim (15m$^2$) va reanimatsiya (80m$^2$) kabi boʻlimlarni oʻz ichiga oladi. Kasalxona ikkita zonaga boʻlingan, qizili va yashil. Qizil zona bu COVID-19 bilan kasallangan bemorlar davolanuvchi maydonlar boʻlib xodimlarni shaxsiy himoya vositalari va dezinfeksiya eritmalaridan qatʼiy foydalanishni talab etadi. Havo namunalari asosan jonlantirish boʻlimidan, bemorlar davolanuvchi palatadan, shifokorlar xonasidan va kutish xonasidan olingan boʻlsa, yuza namunalar kirish eshigi tutqichi, kompyuter tugmalaridan, bemor karavati tutqichidan, bemor shkafi yuzasidan, kislorod uskunasi yuzasidan, xodimlar xalati yuzasi va qoʻlqop yuzalaridan olindi. Ushbu tadqiqot ishida havodagi COVID-19 viruslarini oʻzida ushlab qoluvchi DMEM (Dublicco's Modified Eagle's Medium) [8] ozuqa muhiti

solingan impenjerda to'plash uchun yuqori samarali ichki muhit havosidan namuna oluvchi nasos (GilAir Plus Personal air sampler)dan foydalanildi. Havo namunalari bemor karavatidan kamida 1,5 m masofada yer sathidan 1,5 m balandlikda bir soat davomida 4 L / min-1 oqim tezligida namunalar olinadi. Nasosni kalibrlash Gilibrator 2 Wet Cell Calibrator yordamida ikki marta, tahlillardan oldin va keyin amalga oshirildi. Yuza namunalarni olish maxsus ozuqa muhiti saqlagan namlantirilgan surtma tayoqchalari (Viral Transport Tube)dan foydalangan holda amalga oshirildi va Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) tomonidan tavsiya etilgan "Surface sampling of coronovirus diseases (COVID-19). A practical <how to> protocol for health care and public health professionals" qo'llanmasidan foydalangan holda bayonnoma ishlab chiqildi va bayonnoma asosida namunalar olindi. Olingan barcha namunalar maxsus o'zida haroratni 4$^0$C da ushlab turuvchi termoso'mka yordamida PCR (BioRad Cfx96 Touch Real Time PCR)tahliliga transportirovka qilindi.

1-jadvalga muvofiq ichki muhit havosidan olingan 100 ta namunani tahlil qiladigan bo'lsak ja'mi namunalarning yarmi (50%) dezinfeksiyadan oldin, qolgani esa dezinfeksiyadan keyin olindi. 7 ta jonlantirish palatadan ja'mi 70 ta namuna olinadi. Tahlil natijalariga ko'ra dezinfeksiyadan oldin faqatgina bitta havo namunasida musbat natija aniqlandi. Dezinfeksiyadan keyingi namunalarda musbat natija aniqlanmadi. Kasalligi o'rta og'ir darajadagi bemorlar davolanayotgan palatadan 26 ta havo namunalari olindi. Palatada olingan ja'mi namunadan ikkita holatda musbat natija qayt etildi. Xodimlar xonasi va kutish xonasidan mos tarzda 2 tadan havo namunalari olindi va hech bir namunada musbat natija qayt etilmadi.

***1-jadval***

| Namuna olish joylari va (soni) | Xona maydoni m$^2$ | Umumiy namunalar va (musbat natija) soni | Umumiy namunalar va (musbat natija) soni (dezinfeksiyadan oldin) | Umumiy namunalar va musbat natija soni (dezinfeksiyadan keyin) |
|---|---|---|---|---|
| Jonlantirish bo'limi (7) | 80 | 70 (1) | 35 (1) | 35 (0) |
| Palata (13) | 15 | 26 (2) | 13 (2) | 13 (0) |
| Xodimlar xonasi (1) | 15 | 2 (0) | 1 (0) | 1 (0) |
| Kutish xonasi (1) | 15 | 2 (0) | 1 (0) | 1 (0) |

Havo namunalari olingan paytda bir vaqtda jonlantirish xonasidan ja'mi 268ta yuza namunalari olindi. 2-jadvalga muvofiq 268ta namunadan 98 ta namuna jonlantirish bo'limidan olingan bo'lsa, qolgan 156tasi palatadan, 6tasi xodimlar xonasidan va 8tasi kutish xonasidan olindi. Barcha yuza namunalarning yarmi dezinfeksiyadan oldin va qolgan yarmi dezinfeksiyadan keyingi paytda olindi va taqqoslama tahlil amalga oshirildi. 2-jadvalga muvofiq ja'mi 49ta dezinfeksiyadan oldin jonlantirsh bo'limidan olingan namunalarning 1tasida musbat natija qayt etildi, qolgan dezinfeksiyadan keyin olingan namunalarnig hech birida musbat natija qayt etilmadi. Palatadan olingan namunalarning ham dezinfeksiyadan oldin olingan 78 ta namunadan 8 tasida musbat natija qayt etilgan bo'lsa, dezinfeksiyadan keyingi namunalarda musbat natija qayt etilmadi. Xodimlar xonasidan olingan namunalarda hech bir holatda musbat natija qayt etilmadi. Kutish xonasidan dezinfeksiyadan oldin olingan 4 ta namunadan 1 tasida musbat natija qayt etildi.

***2-jadval***

| Namuna olish joylari va (soni) | Xona maydoni m$^2$ | Umumiy namunalar va (musbat natija) soni | Umumiy namunalar va (musbat natija) soni / dezinfeksiyadan oldin | Umumiy namunalar va musbat natija soni / dezinfeksiyadan keyin |
|---|---|---|---|---|
| Jonlantirish bo'limi (7) | 80 | 98 (1) | 49 (1) | 49 (0) |
| Palata (13) | 15 | 156 (8) | 78 (8) | 78 (0) |
| Xodimlar xonasi (1) | 15 | 6 (0) | 3 (0) | 3 (0) |
| Kutish xonasi (1) | 15 | 8 (1) | 4 (1) | 4 (0) |

Yuzalardan olingan namunalarni namuna olish joylari kesimida tahlil qiladigan bo'lsak 3-jadvalga muvofiq quyidagicha natijalar olindi. Kirish eshigi tutqichidan olingan 42 ta namunadan 1tasi jonlantirish bo'limidan, 2 tasi esa palata kirish eshigida aniqlandi. Kompyuter tugmasi, xodimlar qo'lqopi, xalati yuzasi, bemor karavati yuzasidan va kislorod uskunasi yuzasidan olingan ja'mi 158 ta namunadan hech bir holatda musbat natijalar aniqlanmadi. Bemor shkafi yuzasidan olingan 68ta namunadan dezinfeksiyadan oldin palatada va kutish xonasida musbat natija qayt etildi. Yuqoridagi holatlarni umumlashtirib tahlil qiladigan bo'lsak barcha musbat natijalar dezinfeksiyadan oldingi paytda aniqlandi.

***3-jadval***

| Namuna olish joylari | Umumiy / musbat namunalar soni | Jonlantirish bo'limi | | Palata | | Xodimlar xonasi | | Kutish xonasi | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | A/D | B/D | A/D | B/D | A/D | B/D | A/D | B/D |
| Kirish eshigi tutqichi | 42/3 | 7/1 | 7/0 | 13/2 | 13/0 | - | - | 1/0 | 1/0 |
| Kompyuter tugmasi | 16/0 | 7/0 | 7/0 | - | - | 1/0 | 1/0 | - | - |
| Xodim qo'lqopi | 16/0 | 7/0 | 7/0 | - | - | 1/0 | 1/0 | - | - |
| Xodim kiyimi (xalati) yuzasi | 16/0 | 7/0 | 7/0 | - | - | 1/0 | 1/0 | - | - |
| Bemor karavati tutqichi | 68/0 | 7/0 | 7/0 | 26/0 | 26/0 | - | - | 1/0 | 1/0 |
| Bemor shkafi yuzasi | 68/7 | 7/0 | 7/0 | 26/6 | 26/0 | - | - | 1/1 | 1/0 |
| Kislorod uskunasi yuzasi | 42/0 | 7/0 | 7/0 | 13/0 | 13/0 | - | - | 1/0 | 1/0 |
| Ja'mi | 268/10 | 49/1 | 49/0 | 78/8 | 78/0 | 3/0 | 3/0 | 4/1 | 4/0 |

*A/D – dezinfeksiyadan oldin/musbat natija, B/D – dezinfeksiyadan keyin/musbat natija.*

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, COVID-19ning dunyo bo'ylab tez sur'atda tarqalishi va uning odamlarga yuqish mexanizmida virusni yuqtirishning odamdan-odamga yuqish yo'lidan tashqari havo va kontakt yuzalar orqali yuqish yo'l kabi bir qancha boshqa holatlar mavjudligini ko'rsatadi. Shuning uchun biz kasalligi tasdiqlangan COVID-19 bemorlari mavjud bo'lgan kasalxona bo'limlari ichki havosida virusning potensial aerozollar orqali uzatilishini o'rganib chiqdik. Shunga ko'ra, tadqiqot ishida kasalxona havosining turli bo'limlaridan olingan 100 ta havo namunasidan 3 tasida, 268 ta yuza namunalardan 10 tasida musbat natija kuzatildi. Kasalxonaning ichki muhit havosidan va yuzalaridan virusning yuqishi xavfidan kelib chiqqan holda, shuningdek milliy va xalqaro dalillarga asoslanib, ayniqsa shifoxonalarda sog'liqni saqlash xodimlari uchun xavfsizlikni ta'minlash maqsadida eng yuqori samaradorlikka ega bo'lgan shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish muhimligi a'yon bo'ldi.

**Adabiyotlar:**


1. A field indoors air measurement of SARS-CoV-2 in the patient rooms of the largest hospital in Iran. Sci Total Environ 2020 Jul 10; 725:13840. doi: 10.1016/j.scitotenv.2020.138401. Faridi.S., Niazi.S., Sadeghi.K va boshqalar.
2. Hospital indoor air quality monitoring for the detection of SARS-CoV-2 (COVID-19) virus. Sci Total Environ 2020 Dec 15;748:141324. doi: 10.1016/j.scitotenv.2020.141324. Epub2020 Jul 29. A.Kenarkoohi.,Z.Noorimotlagh va b.
3. Air, surface and personal protictive equipment contamination by severe acute respiratory syndrome Corornavirus 2 (SARS-CoV-2) from symtomatic patient. JAMA 2020 Apr 28; 323(16):1610-1612. doi:10.1001/jama.2020.3227. S.Ong., Y.Tan va boshq.
4. Detection of air and surface contamination by SARS-CoV-2 in hospital rooms of infected patients. Nat Commun 2020 May 29;11(1):2800. doi: 10.1038/s41467-020-16670-2. Po.Ying.Chia., Kristen Kelli Coleman., Yian Kim Tan va boshqalar.
5. COVID-19: Occupational health and safety for health workers. World health organisation and International Labour Organisation. Interim guidance. February-2 2021year.
6. Airborne Transmission Route of COVID-19: Why 2 Meters/6 Feet of Inter-Personal Distance Could Not Be Enough. Int J Environ Res Public Health 2020 Apr 23;17(8):2932. doi: 10.3390/ijerph17082932. Leonardo Setti, Fabrizio Passarini va b.
7. Current situation with doctors and healthcare workers during COVID-19 pandemic in India. Postgrad Med J. 2020 Aug 19; postgradmedj-2020-138496. doi: 10.1136/postgradmedj-2020-138496. Karthikeyan P Iyengar, Vijay Kumar Jain va b.
8. SARS-CoV-2: A systematic review of indoor air sampling for virus detection. Environ Sci Pollut Res Int 2021. doi: 10.1007/s11356-021-13001-w. Epub 2021 Feb 25. João Tito Borges, Liane Yuri Kondo Nakada va b.
9. Indoor Air Quality and Environmental Sampling as Support Tools to Detect SARS-CoV-2 in the Healthcare Setting. J Occup Environ Med. 2021 Nov; 63(11): 956–962. doi: 10.1097/JOM.0000000000002284. P. H.P.Gregorio, A.W.Mariani va b.
10. COVID-19 infeksiyasida immun qatlamning shakllanishi va SARS-CoV-2 ga qarshi antitanacha miqdorining dinamikada o'zgarishi. www.tma-journals.uz ISSN 2181-7812. 36-41 varoqlar. 2020-y. Bektimirov A.M.,Qurbanov B.J va boshq.
11. O'zbekistonda COVID-19ga qarshi epidemiologik kurash tajribasi va uyushgan jamoalarda kasallikni epidemiologik tahlili. www.tma-journals.uz ISSN 2181-

7812. 15-20 varoqlar. 2020-y. Atabekov N.S., Norboev X.N va boshq.

**COVID-19 BILAN KASALLANGAN BEMORLARNI DAVOLASHGA IXTISOSLASHGAN KASALXONA ICHKI MUHITI HAVOSI VA YUZALARINING VIRUS BILAN ZARARLANISHINI O‘RGANISH**

Nurmatov.B.Q., Raximov.B.B.

*Dastlab 2019-yilda Xitoyning Vuhan shahrida koronavirus kasalligini keltirib chiqaruvchi noma’lum tabiatli virus aniqlandi va tezda dunyo bo‘ylab tarqalib pandimeyaga sabab bo‘ldi. Virusni yuqtirib olish yo‘li ko‘plab bahs-munozaralarga sabab bo‘ldi. Ko‘plab tadqiqotlar natijasiga ko‘ra havo-tomchi mexanizmi asosiy yuqish yo‘li ekanligi ilmiy asoslanib bordi. Ammo virusni havoda tarqalishini qo‘llab-quvvatlovchi boshqa omillarning o‘rni va ahamiyatini o‘rganish dolzarbligicha qolmoqda. Biz tadqiqot ishida ichki muhit havosi, yuzalar va shaxsiy himoya vositalarining virus bilan zararlanganligi o‘rganishga harakat qildik.*

***Kalit so‘zlar:*** *Koronavirus, COVID-19, ichki muhit havosidan namuna olish, yuzalardan surtma olish, xodimlar salomatligini muhofaza qilish.*

ГИГИЕНА, САНИТАРИЯ И ЭПИДЕМИОЛОГИЯ